

**KOREYS VA O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING
LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARINI TAHLIL QILISHDA TIL VA
MADANIYATNING BOG'LQLIGI**

Aliqulova Feruza Abror qizi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

E-mail: aliqulovaf1307@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Xususan, koreys va o'zbek xalq maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari solishtirma tahlil asosida o'rganiladi. Maqolalarda xalqning milliy tafakkuri, dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy urf-odatlari mujassam bo'lgani sababli, ularni lingvokulturologiya doirasida o'rganish ikki xalq madaniyatini qiyosiy tahlil qilishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari koreys va o'zbek xalq maqollarida o'xshashlik va farqlarning til va madaniyat bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi hamda xalqona tafakkur ifodalarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, lingvomadaniyat, maqollar, mentalitet.

Har bir xalq, millatning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari mavjud. Inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati, til madaniyati va tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator masalalarni kun tartibiga qo'yemoqda. "Gohida bir tilda so'zlashayotgan insonlar ham bir-birini tushuna olmaydi, bunga sabab ularning madaniyatlari turlichaligidadir," – deb aytgan edi tilshunos olim L.V.Sherba. Ikki madaniyat

vakillari muloqot qilayotganda bir-birini tushuna olmasligi madaniyatlarning to‘qnashuvini yuzaga keltiradi. Bu esa tilshunoslikda katta muammo sifatida ko‘tarilib, til va madaniyat muammosini o‘rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Lingvomadaniyat tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning 90-yillarda vujudga keldi. Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, “lingvomadaniyat” (“lingvokulturologiya”) (lot. lingua “til”; cultus “hurmat qilish, ta’zim qilish”; yunon. “ilm, fan”) termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan [1].

O‘zbek tilshunosligida “til va madaniyat” masalalari bilan eng ko‘p va xo‘p shug‘ullangan olim Nizomiddin Mahmudov o‘zining “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida “til” va “madaniyat” tushunchalari haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosи “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmuyi (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati)” demakdir” [2].

Xalq madaniyatini ko‘rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida bugungi kunda tilshunoslikda lingvokulturologik izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga aylanmoqda, ko‘plab izlanishlarning asosiy obyekti sifatida ishlanilyapti. Koreys folklorshunos olimlari Shim Je-gi va Kim Son-pung maqollarni “인간사회를 있는 그대로 비추는 거울” deb ataydilar va bu orqali maqollar butunlay xalqning madaniyatini ko‘rsatuvchi omillar ekanligiga

ishonadilar. Har bir maqol, ularning fikricha, xalqning turmush tarzini qisqa va lo'nda umuman olganda to'laligicha ifodalay oladigan ko'zgudir [3]. Maqollar yuzasidan olib borgan tadqiqotida maqollarning xususiyatlariiga to'xtalar ekan Chve Chang-ryol shunday deydi: "Maqollar mahalliy xususiyatlarni tashiydi. Ya'ni maqol o'zi yaratilgan hududning o'ziga xos mahalliy belgilarini aks ettiradi. Turli mintaqalarning tillari, urf-odatlari, turmush tarzi va qadriyatlar turlicha bo'lgani kabi, maqollar ham yaratilgan hududga qarab o'ziga xos hududiy rangbaranglikka ega. Koreyslarning o'ziga xos ruhi, e'tiqodi, tarixi va tafakkur tarzini o'zida mujassam etgan koreys maqollari ko'p, shuning uchun ularda mazmun o'xshash bo'lsa-da, har birida Koreyaning o'ziga xosliklari aks etadi.

Shuningdek, maqollarda zamon xususiyati ham mavjud. Maqol o'zi yaratilgan davrning ruhiyatini aks ettiradi. Zero, turmush tarzi, qadriyatlar zamonga qarab o'zgarib, insonlarning dunyoqarashi va ijtimoiy tuzumi ham farq qilib borgani sababli maqollar o'zлari yaratilgan jamiyatning zamon sharoitlarini aks ettirganini ko'rish mumkin. Shu kungacha yetib kelgan maqollar orasida bizning bugungi dunyoqarashlarimizdan farqli feodal davrga oid maqollar ko'p bo'lib, zamonaviy davrda esa bugunning ruhiyatini aks ettiruvchi maqollar paydo bo'lyapti" [4] .

Yuqorida keltirilgan olimlarning nazariyalariga asoslangan holda bir qancha o'zbek va koreys tillaridagi maqollarni chuqur tahlil qilib, keltirilgan fikrlarimizni isbotlashga harakat qilamiz. Ularda xalq turmush tarzi qay darajada ifodalanganligini misollar yordamida keltirishga va ikki tilda mavjud bo'lgan maqollarning solishtirma tahlili orqali o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatishga harakat qilamiz. Masalan: koreys tilidagi "밥이 보약이다" (*guruch tetiklashtiruvchidir*), "남의 더운 밥이 내 식은 밥만 못하다" (*boshqaning issiq guruchi o'zimning sovugan guruchimdek bo'lolmaydi*), "밥 먹을 때는 개도 안 떠린다" (*guruch yeyayotganda, itni ham haydalmaydi*), "제 밥 먹은 개가 제 발등 문다" (*guruchimdan yegan it oyog'imdan tishladi*) maqollaridagi 밥 so'zi "guruch" ma'nosini beradi. Guruch koreys, yapon, xitoy xalqlari uchun asosiy

ozuqa bo'lib, u hamisha Uzoq Sharq dasturxonining muhim atributi bo'lib kelgan. Jumladan, Xitoyda ishdan bo'shatilgan, ishini yo'qotgan odamga nisbatan "U qozonini sindirdi" (ya'ni guruchli qozonini) (砸自己的锅) degan iboraning mavjudligi ham guruchning rizqu nasiba ramzi ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, "guruch", ya'ni "mi" komponenti bilan yasalgan quyidagi frazeologizmlarni keltirish mumkin: Qiao fu nan wei wu mi zhi chui – "Uy bekasi qanchalik aqlli bo'lmasin, mahsulotsiz ovqat pishira olmaydi yoki "Bai yang mi yang bai yang ren" "Har kimning aqli, tashqi ko'rinishi va boshqalarni muhokama qilish usuli farq qiladi" . Xitoy va koreys xalqi madaniyatida insonlar bir-biri bilan uchrashganda "Ovqatlandingizmi?" ma'nosida xitoylarda "你吃了沒?", koreyslarda "밥 먹었어요?" deb so'rash an'anaga aylangan. Buni xitoy va koreys xalqlarining ko'p asrlik tarixida yashash uchun olib borilgan kurashi bilan izohlash mumkin. (Shuni alohida ta'kidlash joizki, Koreyada 1945-yillarda, Xitoyda 1960-yillarda ocharchilik keng tarqalgan edi).

Yuqorida keltirib o'tilgan guruch bilan bog'liq koreys maqollarning o'zbekcha muqobili sifatida esa "Yarimta non – rohati jon", "Nasiya nonning ham kuyugi bo'lar, ham kesagi", "Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber", "Tuzini yeb tuzlig'iga tupurdi" maqollarini keltirishimiz mumkin. Non va tuz azaldan o'zbek xalqi uchun muqaddas va muhim ozuqa etaloni hisoblanib kelib, o'zbek xalq maqollari orasida non va tuz konseptli maqollar juda ko'p uchraydi. Dunyoda o'zbekchalik nonga yuksak hurmatda bo'lган xalq bo'lmasa kerak. Deyarli ko'pgina xalqlarda, jumladan o'zbek xalqida uyga mehmon kelsa, dasturxonga birinchi bo'lib non qo'yadilar. Diplomatik, hamkorlik aloqalari munosabati bilan tashrif buyurgan mehmonlarga ham non, tuz bilan peshvoz chiqadilar. Non va tuz milliyligimiz, madaniyatimiz belgisidir. Ushbu tushunchalar eng ulug', eng aziz ne'mat sifatida qon-qonimizga singib ketganki, hatto mana shu konseptlar zamirida duo, tilak bildirish (noni ko'paysin, noni butun bo'lsin, bitta noni ikkita bo'lsin), qarg'ish (non ko'r qilsin, non ursin, bergan tuzimga rozi emasman, tuzim ko'r

qilgur) ma'nolari ham shakllangan.

Koreys xalqi tomonidan ko‘p ishlatiladigan maqollardan yana biri bu “친구와 포도주는 오래될 수록 좋다” (*do'stlik va vino qancha uzoq saqlansa shuncha yaxshi bo'ladi*) ma’nosini beradi. Koreys xalqi spirtli ichimliklar ko‘p istemol qilganligi sababli aroq bilan bog‘liq maqollar xalq orasida ommalashgan: “외모는 거울로 보고 마음은 술로 본다” (*tashqi ko'rinishni oyna orqali ko'rsang, qalbni aroq orqali ko'rasan*). Shulardan yana **biri** 반잔 술에 눈물나고 한잔 술에 웃음 난다 (*yarim idish vino ko'z yoshini, to'la idishdagi vino kulguni chiqaradi*) maqoli bo‘lib, bu maqol muloyimlik va ko‘ngil og‘ritishni ko‘rsatib beruvchi kichik xatti-harakatni ifodalab keladi: mehmonga idishning yarmida ichimlik berish uning ko‘nglini og‘ritish, hurmatsizlikni anglatadi. Idishni to‘latib ichimlik berish esa, aksincha, muvaffaqiyat tilash va hurmatni ko‘rsatadi. Shuningdek, koreys xalqiga xos bo‘lgan qarashlardan yana biri bu o‘zidan katta inson spirtli ichimlik uzatganda uni qaytarish yoki ichmaslik unga nisbatan hurmatsizlik hisoblanishidir. Hatto aroq quyish va ichish bilan bog‘liq bir qancha etiket qoidalari ham mavjudki, bu koreys xalqi hayotida 술 ning katta ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Koreys xalqida spirtli ichimlik kundalik hayotning ajralmas qismi bo‘lib, ko‘cha-ko‘yda ham 술 ichib ketayotgan insonni uchratish tabiiy holatdir. Koreys xalq maqollari orasida spirtli ichimlikning salbiy oqibatlari haqida ogohlantiruvchi maqollar ham uchrab turadi: “술친구는 친구가 아니다” (*sen bilan ichib o'tirgan do'st haqiqiy do'sting emas*). Ammo bunday maqollar judayam sanoqli.

Ammo o‘zbek tilida hech qachon koreys tilida uchraydigan spirtli ichimlik bilan bog‘liq ijobiy mazmundagi maqollar uchramaydi. Chunki o‘zbek xalqining ko‘pchilik qismi islom diniga sig‘inadi va islom dinida spirtli ichimlik harom qilingan va eng og‘ir gunohlardan hisoblanadi. Shu bois xalqimizda har qanday holatda ham spirtli ichimlik ichish doim qoralanadi: “*Aroqxo'r - o'ziga qonxo'r*”, “*Aroq ichgan - o'ziga kafan bichgan*”, “*Pastak tog'da qor bo'lmas, Aroqxo'rda - or*”. Bu jihatdan olib qaraganda o‘zbek va koreys xalqining diniy qarashlaridagi

ayrim tushunchalar farq qiladi va tilda ham shunday aks etadi.

Demak, biror xalq hayotida mavjud va kundalik hayotda faol qo'llaniluvchi leksemalar tilda o‘z qiyofasini yaratadi va xalqlarning milliy mentalitetini ko‘rsatishda maqollarda ishtirok etmay qolmaydi. Ahamiyatli tomoni shundaki, har ikki tilda mavjud bo‘lgan bir xil maqollar ba’zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba’zan umuman boshqacha ifoda bilan o‘zining xususiyatlarini ochib beradi. Buning sababi shundaki, xalqda bor narsa uning tilida ham ifodalanadi. Agar bir narsa yoki holat har ikkala tilda ham mavjud bo‘lsa, maqol ko‘pincha bir xil ma’no anglatadi. Agar buning aksi bo‘lsa, maqollar umuman boshqacha ma’no berishi yoki bir maqolning muqobil varianti qiyoslanayotgan tilda umuman mavjud bo‘lmasligi mumkin. Shu o‘rinda koreys va o‘zbek maqollarida xalqning o‘tmishidan bugungi kunigacha bo‘lgan barcha millatga xos urf-odatlar o‘z aksini topgan va xalq o‘g‘zaki ijodining nodir namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi. O‘zbek va koreys xalqining mentalitetiga xos jihatlarni o‘rganishda o‘zbek va koreys maqollari bu ikki xalqning o‘ziga yarasha o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rasatib bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996.
 2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiq yo‘llarini izlab...//O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – №5. – 10 b.
 3. Manba: encykorea.aks.ac.k. [심재기], [김선풍]. «속담», 한국민족문화대백과사전. – South Korea, 2021.
 4. 최창렬. 우리속담연구. – 일지사, 1999. – 16 쪽.